

O'ZBEK VA RUS TILLARIDA FE'L BOG'LOVCHILARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI

Mansurova Taxmina Toxirovna

*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti
“Fakultetlararo rus tili” kafedrasи, katta o`qituvchi*

ВАРИАНТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛАГОЛЬНЫХ СОЮЗОВ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Мансурова Тахмина Тохировна

*Чирчикский государственный педагогический университет
факультет гуманитарных наук кафедра “межфакультетский
русский язык”, старший преподаватель*

OPTIONS FOR APPLYING VERB BINDERS IN UZBEK AND RUSSIAN

Mansurova Tahmina Tokhirovna

*Chirchik State Pedagogical University Faculty of Humanities”
Faculty of Russian language " department, senior lecturer*

Annotatsiya: O'zbek tilida fe'l bog'lamalarining qo'llanishi turli shakllarda aks etadi. Ba'zi hollarda til grammatik taraqqiyoti jarayonida fe'l bog'lamalrning nutqda qo'llanmasligi ham kuzatiladi. Bu holat yana bir xususiyati bilan muhimki, keyingi davrda o'zbek tilida paydo bo'lgan fe'l bog'lamalarining nutqda ifodasiz qo'llanishi bevosita rus tili orqali o'tgan gap konstruksiyalari orqali shakllangan.

Kalit so'zlar: fe'l va uni tasniflash masalalariga doir izlanishlar, mustaqil ma'noga ega bo'lgan fe'l otlar bilan birikib, bog'lama vazifasida qo'llanganda ham ot orqali ifodalangan narsa-hodisa.

Abstract: In some cases, during the grammatical development of the language, verbs are not used in speech. Another feature is that the non-expressive use in speech of verbs that appeared in the subsequent period in the Uzbek language was formed directly in the Russian language.

Key words: research into the questions of verb and its classification, what is expressed through the noun, even when a verb with an independent meaning is combined with nouns and applied in a binding task, is a phenomenon.

KIRISH

O'zbek tilida fe'l bog'lamalarining qo'llanishi turli shakllarda aks etadi. Ba'zi hollarda til grammatik taraqqiyoti jarayonida fe'l bog'lamalrning nutqda qo'llanmasligi ham kuzatiladi. Bu holat yana bir xususiyati bilan muhimki, keyingi davrda o'zbek tilida paydo bo'lgan fe'l bog'lamalarining nutqda ifodasiz qo'llanishi bevosita rus tili orqali o'tgan gap konstruksiyalari orqali shakllangan.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda tegishli xorjiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlaridan foydalanildi.

Jahon tishunosligida so'zlarni turkumlarga ajratish, grammatik ma'no talqini, grammatik kategoriyalar, fe'l va uni tasniflash masalalariga doir izlanishlar bir qancha tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan. Jumladan, rus olimlari O.P.Sunik, V.A.Kochergina, B.N.Golovin, V.B.Kasevich,



[https://orcid.org/
0009-0008-8957-
302X](https://orcid.org/0009-0008-8957-302X)

[mansurovataxmina
029@gmail.com](mailto:mansurovataxmina029@gmail.com)

M.D.Stepanova, G.N.Voronsovalar [1] tadqiqotlari bunga yaqqol misol bo‘ladi. O‘zbek tilshunos olimlari U.K.Yusupov, M.T.Irisqulov, Sh.Shohobiddinova, A.B.Botirovalar[2]ning tadqiqotlarida ham so‘z turkumlari haqida nazariy fikrlar yoritilgan. Xususan, tilshunos olim A.Hojiyev tomonidan o‘zbek tilidagi “to‘liqsiz fe’llar va ular yordamida yasalgan fe’l shakllarining ma’no va vazifalari, qo‘llanishdagi xususiyatlar” [3] tahlil qilingan. Tilshunos R.Rasulov tomonidan esa aynan “o‘zbek tilidagi holat fe’llari” [4] tadqiqi amalga oshirilgan. Shuningdek, tadqiqotchi Sh.M.Jalolovaning “Ingliz va o‘zbek tillarida fe’l turlarining chog‘ishtirma tadqiqi” [5] nomli dissertatsiyasida ingliz va o‘zbek tillarida grammatika va leksika o‘rtasidagi aloqadorlik inobatga olingan holda fe’l turlari chog‘ishtirib aniqlangan.

ASOSIY QISM (XULOSA VA NATIJA)

Turkiy tillarda bog‘lama fe’l vazifasida qadimdan *-dir(-dur)* qo‘shimchasi, *edi*, *emas*, *emish*, *ekan*, *esa* kabi to‘liqsiz fe’llar qo‘llanib kelgan. Ulardan *emas* bo‘lishsizlikni ifodalovchi shaklga, *esa* fe’l bog‘lovchiga aylanib ketgan. *Emas* va *esa* to‘liqsiz fe’lining *edi*, *ekan* kabi formalari turlituman ma’no ifodalovchi va fe’lning turli shakllarini yasovchi vositalar sifatida qo‘llanilmaydi. Ular gapda asosan kesim tarkibida qo‘llanilib, uning kesimlik belgisining grammatik ifodasini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbek tilida fe’l bog‘lamalarining qo‘llanishi turli shakkarda aks etadi. Masalan, “**kuchli shamol**” so‘z birikmasi “**shamol kuchli**” shaklida ishlatsila gapga aylanadi. Bunda uning ot kesim o‘rnida kelgan sifat – “**kuchli**” so‘zining bog‘lama kesimligi ifodalash uchun aslida *-dir* bog‘lamasi qo‘llanishi lozim edi. Biroq hozirgi o‘zbek tilida bunday bog‘lama ifodasiz amalga oshadi.

To‘liqsiz fe’l shaklidagi bog‘lamalar *edi*, *ekan*, *emish* shakkari ham harakat ma’nosiga ega emas. Ular turli ma’nolarni ifodalash uchun turli grammatik vazifalarda qo‘llanadi. To‘liqsiz fe’llar keng ma’noda otlar bilan ham, fe’llar bilan ham qo‘llanadi: **bog‘ edi, ishlar edi; go‘zal ekan, kelgan ekan** kabi.

Tilshunos olim A.Hojiyev to‘liqsiz fe’llar *edi*, *ekan*, *emish* shakllarining o‘ziga xos xususiyati bilan birga, ularning uchalasi uchun umumiy bo‘lgan

bog‘lovchilik xususiyatlarini sanab o‘tadi [6]. Ular quyidagilar:

1. To‘liqsiz fe’l mustaqil ma’noga ega emas. Lekin tarixan mustaqil ma’noli bo‘lgan.

2. To‘liqsiz fe’l o‘zicha harakat bildira olmasligi sababli fe’llarga xos bo‘lishsizlik, daraja, zamon kabi ma’nolarga va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllarga ega bo‘lmaydi, ular faqat gapning sintaktik mazmunini to‘ldiradi, gap bo‘laklarini o‘zaro bog‘lanishiga xizmat qiladi. Binobarin, shaxs-son qo‘shimchalari to‘liqsiz fe’lga qo‘shilsada, lekin ular bildirgan shaxs ma’nosи to‘liqsiz fe’lga emas, balki kesim vazifasidagi butun majmuaga oid bo‘ladi, ularning o‘zaro bog‘lanishiga xizmat qiladi: *xabardor ekan+man*, *xabardor ekan+san*; *bilgan edi+m*, *bilgan edi+ng*; *bilar emish+man*, *bilar emish+san*.

3. To‘liqsiz fe’l shakllarida o‘zak va unga qo‘shilgan affiks tashqi tomondan aniq ajralib turadi. Lekin hozirgi o‘zbek tilida to‘liqsiz fe’lning o‘zi mustaqil ma’noni saqlamagan kabi, unga qo‘shilgan affikslar ham shu shakl doirasida o‘z xususiyatini to‘la saqlamagan yoki butunlay yo‘qotgan. Hatto o‘tgan zamon fe’lining bir necha turini hosil qilishda qatnashadigan *edi* to‘liqsiz fe’li tarkibidagi *-di* shakli ham o‘z xususiyatini to‘la saqlamagan. Shu sababli *edi* to‘liqsiz fe’li doim ham o‘tgan zamon fe’li shaklini ifodalayvermaydi.

4. To‘liqsiz fe’llar fe’l shakllari bilan birikkanda, asosiy fe’l shakliga xos ma’no ma’lum darajada saqlanishi mumkin. Lekin umumiylar ma’no asosiy fe’l shakli bilan to‘liqsiz fe’l shakli ma’nosining oddiy arifmetik yig‘indisidan iborat bo‘lmaydi. Shuning uchun ma’lum shakllar doirasida to‘liqsiz fe’lni nutqdan tushurib bo‘lmaydi yoki tushurib qoldirish mumkin bo‘lgan hollarda ma’no butunlay o‘zgarib ketadi. Eng muhimi bu bog‘lanish gapda payt (zamon), shaxslararo munosabatlarda alohida ahamiyat kasb etadi, nutqning grammatik butunligini ta’minlashga xizmat qiladi. “*Ishlar edi*”, “*bilar edi*” fe’llaridan to‘liqsiz fe’l tushirilib qoldirilsa, aniqlik ma’nosи gumon ma’nosи bilan almashadi.

Demak, “asosiy fe’l + to‘liqsiz fe’l” tipidagi qo‘shilmalarda shakl butunligi ma’no butunligini ta’minlashga xizmat qiladi, aniqrog‘i shakl va ma’no butunligi, bog‘lanishligi yaratiladi.

5. To‘liqsiz fe’l orqali shakllanadigan ma’no butunligi faqat bir so‘z yoki jumlaga emas, balki

nutq konstruksiyasining xarakteriga qarab butun bir gap yoki matnga oid bo‘lishi mumkin. Masalan, “*Uzunni qo‘y, qisqani kes*”, *ekan-da dunyoning ishi; Davraning to‘rida o‘tirib kelgan Komiljon edi.*

6. To‘liqsiz fe’l bog‘lama otlarga ham, fe’llarga ham birika oladi. Ularning tuslanishli fe’llarga birikishiha nisbatan sifatdosh va ravishdosh shakllariga birikishi ko‘proq uchraydi. Chunki ikki fe’lning o‘zaro birikishida odatda ravishdosh yoki sifatdosh shakllari vosita bo‘ladi. To‘liqsiz fe’lning tuslanishli fe’l shakliga birikishi til taraqqiyotining nisbatan ancha keyingi davrlarida yuz bergen.

7. Bir kesim tarkibida *edi, ekan, emish* shakllaridan birining qo‘llanishi hozirgi o‘zbek tilida asosiy holat hisoblanadi. Lekin kam bo‘lsa-da, bir kesim tarkibida ikki to‘liqsiz fe’lning qo‘llanishi hollari uchrab turadi. Masalan, bu sukunat yana qancha *davom etar edi ekan?*

To‘liqsiz fe’lning *edi* shakli orqali ifodalanadigan o‘tgan zamon ma’nosini bilan boshqa zamon fe’l shakllari orqali ifodalanadigan ma’nosini bir xil emas. *Edi* to‘liqsiz fe’li otlarga birikib kelganda, narsa-hodisa yoki belgining mavjud bo‘lishi nutq momentiga nisbatan emas, hozirga nisbatan olinadi. Shu sababli “qachon” so‘rog‘iga bo‘ladigan javob ham “edi” shaklida o‘tgan zamon fe’llaridagidan boshqacha bo‘ladi. Masalan, “*Xatni tugatdim*” gapiga nisbatan qo‘yiladigan “*qachon?*” so‘rog‘iga “*hozir*”, “*endigina*” so‘zlarini javob bo‘lishi mumkin. Lekin “haqiqiy edi” shakliga nisbatan qo‘yilmaydi. Demak, o‘tgan zamon fe’l shakllarida harakat holatning nutq momentida emas, balki nutq momentidan oldin (nutq momentigacha) bajarilishi ifodalansa, “*edi*” shaklida narsa-hodisa belgining hozir emas, balki avval, ilgari (hozirgacha) mavjud ekanligi ifodalanadi[7]. Shu sababli narsa-hodisa, belgi kabilarning avvalgi va hozirgi holatlari qiyos qilinganda, biringchi gapning kesimi (avvalgi holatni bildiruvchi kesim) *edi* shaklida, hozirgi holatni bildiruvchi gapning kesimi o‘tgan zamon fe’li shaklida bo‘ladi. Lekin hozirgi holatni bildirgan gapning kesimi hech vaqt *edi* shaklida bo‘lmaydi: *Kim edim? Endi kim bo‘ldim.* Bu o‘rinda keyingi gapning kesimi o‘tgan zamon shaklida bo‘lishidan qat’i nazar, undagi *bo‘ldi fe’li* o‘rnida *edi* to‘liqsiz fe’lini qo‘llab bo‘lmaydi.

Mustaqil ma’noga ega bo‘lgan fe’l otlar bilan birikib, bog‘lama vazifasida qo‘llanganda ham ot orqali ifodalangan narsa-hodisa, belgi kabilarning

yuzaga kelganligi, yuzaga kelayotganligi yoki endi yuzaga kelishi ifodalanadi: *go‘zal bo‘ldi, go‘zal bo‘layapti, go‘zal bo‘ladi.* Demak, bularda nutq momentiga munosabat bor. Shunga ko‘ra, go‘zal bo‘lgan – o‘tgan zamon, go‘zal bo‘lyapti – hozirgi zamon, go‘zal bo‘ladi – kelasi zamon hisoblanadi. [8]

Hozirgi o‘zbek tili bilan mustahkam aloqada bo‘lgan rus tilidagi fe’l bog‘lamalarining nutqdagi paradigmalarini ham o‘rganishga harakat qildik. Bu holat yana bir xususiyati bilan muhimki, keyingi davrda o‘zbek tilida paydo bo‘lgan fe’l bog‘lamalarining nutqda ifodasiz qo‘llanishi bevosita rus tili orqali o‘tgan gap konstruksiyalari orqali shakllangan. Ingliz tiliga qarindosh hisoblangan rus tilida fe’l bog‘lamalar qanday semantik-stilistik imkoniyatlarga egaligi, ularning semantik-morfologik ifodasi muammosi tadqiqot ishimizning maqsadlaridan biri ekanligidan kelib chiqib aytganda, qarindosh va noqarindosh tillardagi morfologik-semantik jarayonlar umumiyligi tilshunoslikning ayrim muammolariga oydinlik kiritishi aniqdir.

Rus tilida yozilgan ishlarda “вспомогательный глагол”, “недостаточный глагол”, “неправильный глагол”, “служебный глагол” terminlari, o‘zbek tilida yozilgan ishlarda “ko‘makchi fe’l”, “yordamchi fe’l”, “to‘liqsiz fe’l” terminlari qo‘llangan. Bulardan “ko‘makchi fe’l” va “yordamchi fe’l” terminlari ruscha “вспомогательный глагол” termini bildirgan ma’noda, “to‘liqsiz fe’l” termini esa rus tilidagi “недостаточный глагол” termini bildirgan ma’noda qo‘llangan. Rus tilida yozilgan ishlarda ham, birinchidan, “неправильный глагол” termini maxsus sarlavha sifatida ishlatilmaydi, balki “вспомогательный глагол” sarlavhasi ostida shu termin ham qo‘llanadi. Ikkinchidan, bu termin juda kam ishlarda qo‘llangan. Keyingi davrda yaratilgan ishlarda bu termin deyarli qo‘llanmaydi.

XULOSA

Fe’llarning ma’lum diskursiv sharoitda yordamchi vazifalarni bajarishlari olimlar tomonidan qayd qilingan. Bu borada, ayniqsa rus va o‘zbek olimlarining e’tiborga loyiq tadqiqotlar olib borganligi kuzatiladi. Rus va o‘zbek tillaridagi bog‘lama vazifasini bajaruvchi fe’llarning ingliz tiliga qiyosi jaryonida ularning o‘z til doirasidagi

sementik-stistik va funksional xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bog‘lovchi fe’llarning semantik-stistik xususiyatlarini tahlil qilishda maydon nazariyasini qo‘llash til lug‘at tarkibining tizimiylar xarakterini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Bu nazariy asoslar ingliz tili bog‘lovchilari va bog‘lovchi fe’llarining leksik-grammatik paradigmalari tahlilida dastur vazifasini bajarishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Суник О.П. Глаголы в тунгусо-маньчжурских языках. – М.: 1962. – Ст. 233; Кочергина В.А. Учебник санскрита. – М.: “Добросовет МЦНОМ”, 2015. – Ст. 348; Головин Б.Н. Введение в языкознание. [Учеб. пособие для филол. специальностей ун-тов и пед. ин-тов] // Головин Б.Н. 3-е изд., испр. – М.: Высш. школа, 1977. – 311 ст.
2. Юсупов У.К. Проблемы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: Фан, 1980. – 135 ст.;

- Ирисқулов М.Т. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 252.; Ботирова А.Б. Ўзбек тилида сўз туркумларининг бирламчи ва иккиласми вазифалари. JO - ULUSLARARASI TÜRK LEHÇE ARAŞTIRMALARI DERGİSİ (TÜRKLER), 2018. – Б. 428-433.
3. Ҳожиев А. Тўлиқсиз феъл. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1970. – 263 б.
4. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигаторлар валентликлари. – Тошкент: 1989. – 143 б.
5. Ш.М. Жалолова. Инглиз ва ўзбек тилларида феъл турларининг чоғиштирма тадқиқи: Филол. фан. бўйича фал. док. ...дисс. – Тошкент, 2019. – 132 б.
6. «Грамматика алтайского языка» (составлена членами Алтайской миссии), Казань, 1869. – С. 265.
7. Ҳожиев А. Тўлиқсиз феъл. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1970. – Б. 18.\
8. Фуломов А. Ф. Феъл. – Тошкент: 1954. – 83 б.

